



UDK: 821.512.133

Obidjon SHOFIYEV,
Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: shofiyev@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, professor Sh.Hasanov taqrizi asosida

ERKIN A'ZAMNING "SHOIRNING TO'YI" QISSASIDA IJODKORLAR OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Erkin A'zamning "Shoirning to'yi" qissasida ijodkorlar obrazining badiiy talqini tahlil etilgan. Asarda ijodkor shaxsi, uning ruhiy iztiroblari, totalitar tuzum ta'siridagi taqdiri va millat xotirasi bilan bog'liq ma'naviy muammolar keng yoritiladi. Yozuvchi Otashqalb shoir obrazi orqali nafaqat bir ijodkorning fojiasi, balki butun bir avlodning ma'naviy drama va iztirobini ifoda etadi. Muallif ijodkorning vijdon, haqiqat va ma'naviyat uchun kurashini dramatik va ramziy usulda badiylashtiradi. Maqolada asarning estetik qimmatini va ijodkor shaxsiyatini orqali millat ruhiyatini ifoda etish tamoyillari yoritilgan. **Kalit so'zlar:** Ijodkor obrazi, dramatism, totalitar tuzum, ma'naviy iztirob, milliy xotira, badiiy talqin.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ТВОРЦОВ В ПОВЕСТИ ЭРКИНА АЗАМА «СВАДЬБА ПОЭТА»

Аннотация

В статье рассматривается художественное осмысление образов творческих личностей в повести Эркина Азема «Свадьба поэта». Автор раскрывает духовный мир поэта и других персонажей, их внутренние страдания и судьбу в условиях тоталитарной системы. Через образ Поэта Огненного сердца выражается не только личная трагедия художника, но и драма целого поколения. Повесть демонстрирует противостояние истины и лжи, совести и страха. В статье анализируется художественно-эстетическое значение произведения и роль образа творца в формировании национальной духовности.

Ключевые слова: Образ творца, драматизм, тоталитарная система, духовные страдания, национальная память, художественный анализ.

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF CREATORS IN ERKIN A'ZAM'S NOVELLA "THE POET'S WEDDING"

Annotation

This article analyzes the artistic interpretation of creative personalities in Erkin Azam's novella The Poet's Wedding. The work depicts the fate of the artist under a totalitarian regime, exploring the inner torment, moral conflict, and national memory intertwined with creative identity. Through the image of the Fiery-Hearted Poet, the author portrays not only an individual's tragedy but also the moral drama of a generation. The novella reflects the tension between truth and hypocrisy, conscience and fear. The article highlights the aesthetic value of the work and its philosophical approach to portraying the artist's role in national spirituality.

Key words: Image of the artist, dramatism, totalitarian system, spiritual conflict, national memory, artistic interpretation

Kirish. "Shoirning to'yi" qissasi Erkin A'zamning eng muhim asarlaridan biri bo'lib, unda ijodkor hamda millat taqdiri, haqiqat bilan yolg'onning abadiy to'qnashuvi keng ko'lamda talqin qilinadi.

O'tgan asrning 20–50-yillari orasida sobiq Sovet Ittifoqi hududida olib borilgan siyosiy qatag'onlar nafaqat siyosiy va ijtimoiy hayotga, balki madaniy, ma'naviy va adabiy sohalarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston ham bu zulmdan mustasno bo'lmadi. Qatag'on siyosati natijasida yuzlab ziyolilar, shoir va yozuvchilar ta'qibga uchradi, qamaldi, otib tashlandi yoki haqiqatda qilmagan "gunohlar"da ayblandi.

Ziyolilarning qalbidagi dard, millatning azob-uqubatlari kechmishlari, erkinlikka bo'lgan intilish va insoniy qadriyatlarni o'sha davrda badiiy ifodalash imkonsiz edi.

Erkin A'zam tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan "Shoirning to'yi" qissasi ana shu ma'naviy sukut yillarida to'plangan og'riq va iztirobni badiiy ifodaga aylantirishga uringan muhim asardir. Qissada totalitar tuzumning inson taqdiriga ta'siri, erkin fikr va so'z uchun kurash, ma'naviy qiyinchiliklar ruhiy chuqurlik bilan aks ettiriladi.

Yozuvchi mazkur qissasi haqida shunday yozadi: "Bu asarning qo'lyozmasini o'qigan ehtiyotkorroq bir do'stim "O'zini bilgan-bilmagan birortasi g'alva qo'zg'ab yurmasmikan?" degandek ishtiboh bildirgan edi. Shu gap sababmi, qo'lyozmani talay yil tashlab ko'ydim. Ushbu kitobni nashrga tayyorlayotganimda, ittifoqo, ish stolim g'aladonidan o'zi chiqib qoldi. O'qib ko'rdim, nazarimda – "to'yga borgudek". Albatta, asardagi voqealar osmondan olib yozilmagan, ul-bul turtki bo'lgan. Albatta, o'sha davr adabiyotiga xos jangariroq bir ruh bor unda. Lekin badiiy asar kimnidir ranjitish yoki fosh etish maqsadida yozi, shasligi ma'lum. Shunday deb o'ylagan odam esa – yo adabiyotdan yiroq, yo... o'zidan ko'rsin. Qolaversa, yaqinda bu qo'lyozma bilan tanishgan yana bir do'stimning gapi menga nash'a qildi ham dalda bo'ldi. "Nega shu choqqacha chiqarmay yuribsiz?– dedi u. – Badiiy asar-ku bu!" [1].

Mazkur asar orqali muallif nafaqat bir shoir qismatini, balki butun bir millatning xotirasi va ma'naviy ozodlikka intilishini badiylashtirgan.

Asarga Shukur Xolmirzayev ham yuqori baho bergan: "Shoirning tug'ilgan kuni"ga o'tamizda? Xo'sh, bismillo deb qo'lni bering, Erkinboy, tabriklayman. Xo'b yaxshi, zamonaviy, og'riqli, hamma biladiyu, hech kim

yo‘zishga jur‘at qilmagan mavzuni ishlab, uni badiiy san‘at darajasiga ko‘tarib qo‘yibsliz.

Ey, Erkin, invalid shoirm Sibirdan O‘zbekistonga “olib kelish” fikri qayerdan kallangizga keldi? Qoyil, uka... Topildi, bu. Man-man degan kallaga ham kelavermasligi mumkin...” [2].

Asarning markazida Otashqalb shoir qiyofasi turadi. Uning hayoti, ijodi va fojeali taqdiri orqali muallif butun bir davrning ma‘naviy dramasi namoyon etadi. Muallif qahramon orqali faqat bir inson taqdirini emas, balki butun bir avlod, butun bir jamiyatning ruhiy holatini ifodalagan. Bu jihatdan qissa oddiy hikoya emas, balki teran falsafiy va ijtimoiy asar sifatida o‘quvchiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. “Shoirming to‘yi” qissasini anglash uchun, avvalo, uning ijtimoiy-tarixiy zaminiga e‘tibor qaratish lozim. Asarda tasvirlangan voqealar sovet tuzumi davriga borib taqaladi. Bu davr adabiyot uchun ham, ijodkor taqdiri uchun ham og‘ir, ziddiyatli va dramatik bir muhit edi. Yozuvchi va shoirlardan ijodiy erkinlik emas, balki partiya siyosatini madh etish talab qilingan. Haqiqiy so‘z erkinligi mavjud bo‘lmagan, ijodkorning mustaqil fikri esa ko‘pincha xiyonat sifatida baholangan.

Otashqalb shoir qiyofasi ana shu fojeali davrning timsoli sifatida tasvirlangan. U ijodi va pok shaxsiyati bilan xalq sevgisini qozongan, ammo mafkuraviy tazyiq qurboniga aylanib, nohaq “xalq dushmani” deb tamg‘alanayotgan qahramondir. Bu obraz orqali muallif sho‘ro davri qatag‘onining umumiy qiyofasini ko‘rsatadi, tarixiy adolatsizlikning insoniy taqdirlarga solgan og‘ir zarbasini namoyon qiladi.

Asarning asosiy voqealigi yubiley marosimi orqali ifoda etilgan. Bu marosim tashqi tomondan tantanavor ko‘rinsada, aslida soxtalik va maddohlikdan iborat. Yubileyda rasmiy ma‘ruzalar, madhlar, soxta xotiralar ko‘p, ammo haqiqat yo‘q. Tantani anjumanda qo‘l chapaklar va yolg‘on maddohlik hukmron, ammo o‘sha soxta qiyofalar ostida haqiqat iztirob bilan “hayqirib” turadi. Muallif ana shu ziddiyat orqali butun bir tuzumning asl qiyofasini ochadi.

Yubiley orqali muallif adabiyot va siyosat to‘qnashuvini keng ko‘lamda tasvirlaydi. Bir tarafda rasmiy, soxta ma‘ruzalar va maddohlik turar ekan, ikkinchi tarafda haqiqat va adolat uchun og‘irliq ovozlari eshittiladi. Shuning uchun yubiley sahnasi asarda faqat tashqi voqea emas, balki butun bir ma‘naviy drama sahnasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu dramada har bir qahramon muayyan g‘oya va ijtimoiy qiyofani ifoda etadi: Oqsoqol shoir xiyonat va ikkiyuzlamachilik, Mafkuraxonim siyosiy mafkuraning adabiyotga aralashuvi, Ma‘shuqaxonim soxta afsona va yolg‘on xotira ramzi, nogiron muxlis esa haqiqat va vijdon ovozidir. Muallif ushbu obrazlar orqali tuzumning ko‘p qirrali qiyofasini ko‘rsatadi, ijodkor taqdiri bilan millat taqdirini uyg‘un holda talqin qiladi. Shu tariqa, qissaning birinchi qatlamida sovet tuzumidagi ijodkor taqdiri, ikkinchi qatlamida esa butun bir avlodning ma‘naviy dramasi namoyon bo‘ladi.

“Shoirming to‘yi” qissasi syujet qurilishi va kompozitsiya tizimi jihatidan zamonaviy o‘zbek nasrida o‘ziga xos o‘ringa ega. Asar voqealari tashqi voqelikdan ko‘ra ko‘proq ramziy-majoziy sahna sifatida qurilgan bo‘lib, unda har bir epizod katta ma‘naviy mazmun bilan to‘yintirilgan. Bu jihatdan asar nafaqat voqealar rivoji, balki inson ruhiyatining dramatik sahnasi sifatida o‘quvchiga kuchli ta‘sir uyg‘otadi. Asar koshona haqidagi tasvir bilan boshlanadi:

“Shaharning qoq markazidagi bu koshonani bino etishda urushdan keyingi yillar harbiy asirlarini, allaqanday ajnabiyarlarni qatnashgan, degan gap yuradi. Tarix, kechagi kun – bamisoli serishva jonon, har kim uni ta‘biga moslab olaveradi; davr shamoliga qarab o‘zgaravergani sayin chin haqiqatni aniqlash mushkullashib boradi.

Nemislar qurganmi, samuraylarmi, harqalay, shaharda bunday pishiq, mustahkam imorat sanoqli. Mash‘um zilzilada unga zaha yetkazolmag‘ani bejiz emas: nemis ham, yapon ham serhafsala, qo‘li gul, rosa hunarmand keladi.

Bu binoning loyihasini Bessarab dashtlarida tug‘ilib, noyob iqtidori bilan “bepoyon o‘lkam”ning poytaxtini zabt etgan, uning qoq yuragida “dunyo yo‘qsillarining dohiysi” maqbarasini ham chizmalab bergan bir me‘mor yaratgan. Qolaversa, bu kabi tarixiy obidalarining tamal toshini yengiltaklikni jini suymaydigan, har ishda haybatu dabdabaga o‘ch mo‘ylovdor dohiyning shaxsan o‘zi qo‘ygan. Bu jabhaga kimlarni jalb qilishni ham bilgan. Asirlar – harbiymi, siyosiy, jo‘ngina jinoiymi yoxud o‘zinikimi, begonami – farqi yo‘q, aybi bo‘lsa bas. Aybdor sho‘rlik o‘lib-tirilib ishlaydi, shunga majbur. Mehnati bilan gunohini yuvmoqni o‘ylamasa-da, mahkumlikni, mahrumlik uqubatlarini shu yo‘sin yengmoq bo‘ladi.

Mo‘ylovdor dohiyning mo‘ljali – bexato. Tasavvur qilish mumkin: tikanakli simto‘siq bilan o‘rab olingan bu atrofda, oyoqlarida yog‘ochchipta kavush, yag‘ir paxtalik kiyyan mahbuslar u yoqdan-bu yoqqa zambilg‘altak surib yuribdi. Bosh ko‘tarish yo‘q, o‘zaro so‘z qotish yo‘q. Ish, ish. Vazifa shunday. Zarbdor jabha. Qurilish borayotgan maydonni simto‘siq orqali kuzatgan odamning ko‘zi tinadi: bu ro‘yi zaminda ikki xilgina rang bor ekan-da – oqu qora, ola-bula; yo‘l-yo‘l, yo‘l-yo‘l.

Sho‘rlik mahkumlar nima gunohlariga bu yerga kelib qolgan? Nima qurayotganlarini o‘zlari bilmikan? Bilishadi, bilishadi — loyihashunos sarkorlari ham o‘zlariga o‘xshagan mahbus. Ozod Sharqda yagona teatr, san‘at maskani! San‘at maskani mahbuslar qo‘li bilan bunyod etiladimi? Nima ahamiyati bor? Maqsad – aniq, muddao – zo‘r, zarbdor qurilish Oktyabr bayramigacha bitmog‘i shart!

Bitadi, shak-shubhasiz bitajak. Shaharning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shajak, obod, dilkusho manzilga aylanajak. To‘g‘ri, shaharda keyin ham, ayniqsa, zilziladan so‘ng ko‘plab imoratlar qad ko‘tardi, ne-ne sarvqomat binolar bo‘y cho‘zdi, u “Ozod Sharqning mash‘ali” deb jar solindi. Biroq sipo, purviqor koshonamiz oldida bulari xiyala nomukammal – kalta-kultaga o‘rangan zamonaviy qaqajonlarni eslatadi: yengiltak, oson-omonat” [1, 57-58].

Bu koshona – tuzumning sun‘iy shon-shuhrati, rasmiyatchilik va madaniyat nomidan xalqqa ko‘rsatilgan soxta tamaddunning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. U mahbuslar mehnati bilan bunyod etilgan, “Ozod Sharqning mash‘ali” deb atalgan bo‘lsada, aslida xalq azobining yodgorligi, soxtalikning timsoli. Shu orqali muallif qissaga ilk satrlardan oq tanqid ruh olib kiradi va butun asar dramatik fon bilan qoplanadi.

Syujetning asosiy markazi Otashqalb shoir xotirasiga bag‘ishlangan yubiley marosimi. Bu marosim sirtidan qaraganda buyuk ijodkorni yod etish maqsadida tashkil etilgan tantana kabi ko‘rinadi, ammo aslida siyosiy manfaatning mahsulotidir. Yubiley sahnasida ikki qarama-qarshi qutb namoyon bo‘ladi: bir tarafda rasmiylar, maddohlar, soxta ma‘ruzalar va chapakbozlik; ikkinchi tarafda esa haqiqatga sadoqatli muxlislar va nogiron bir inson qiyofasida gavdalanagan vijdon ovozi. Shu ikki qutbning dramatik to‘qnashuvi asarning tarkibiy markazini tashkil qiladi.

Asardagi obrazlar tizimi keng va ramziy ma‘nolarga boy. Birinchi navbatda, Otashqalb shoir qiyofasi butun voqealarning markazida turadi. U asarda bevosita ishtirok etmasada, uning xotirasi, ruhi va taqdiri orqali barcha dramatik keskinlik yuzaga chiqadi. Otashqalb shoir – sadoqat, haqiqat va ijodkorlik ramzi bo‘lib, uning fojeali taqdiri bir butun avlodning taqdiri sifatida talqin etiladi. U tuzum qurboni, ammo ma‘naviy jihatdan mag‘lub bo‘lmagan qahramon sifatida gavdalanadi.

Oqsoqol shoir esa ikkiyuzlamachilik va xiyonat timsoli sifatida tasvirlangan. U yubileyda do'stlik va sadoqat haqida nutq so'zlaydi, ammo aslida yoshlikdagi raqobat va shaxsiy manfaat uni do'stini sotishga olib kelgan. Zaldan chiqqan "Siz do'stingizni himoya qilmadingizmi?" degan savol butun asarning psixologik kulminatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu savol orqali soxtalik va haqiqatning to'qnashuvi yanada ravshanlashadi, Oqsoqol shoirning asl qiyofasi ochiladi.

Mafkuraxonim siyosiy mafkuraning adabiyotga aralashuvini ifoda etadi. Uning nutqi shaxsiy hissiyotdan xoli, partiyaning tayyor qoliplariga asoslangan. Uning ma'ruzasi so'z san'ati emas, balki "siyosiy spektakl"dir. Bu obraz orqali muallif ijodkorlikni siyosiy apparatga tobe etishning fojeaviy qiyofasini ochib ko'rsatadi. Bu obraz butun bir jamiyatning mafkuraviy nazoratini amalga oshiruvchi, sho'rolar ideologiyasiga chuqur singgan va uning tamoyillarini hayotga tadbqiq etuvchi shaxs sifatida tasvirlangan. Otashqalb shoirning yubiley tadbiridagi ishtirokida uning shaxsiy qarashlari va ichki mohiyati fosh bo'ladi. Mafkuraxonimning "Qani, domlaning o'zlari keldilarmi?", "Men yubilyarni so'ravobman" [1] kabi savollari orqali shoir haqida rasmiy axborot asosidagina xulosa chiqarishi, uning shaxsiyatidan bexabar ekani namoyon bo'ladi. Bu holat Mafkuraxonim kabi tipajlar shaxsiy fikrdan mahrum, faqat mafkura bilan yashovchi insonlar ekanligini ko'rsatadi. Asarda bu obraz quyidagicha tasvirlanadi:

"Mafkuraxonim deganimiz asli komsomoldan yetishib chiqqan, keyinchalik talay yil poytaxt tumanlaridan birida partiya qo'mitasiga yetakchilik qilgan, bir oz muddat madaniyat vaziri ham bo'lgan, mana, olti oydirki, yangi egarga o'rnashib, mafkura otining jilovini tutgan edi. Qirq besh yoshlar chamasidagi bu xotin so'zga nihoyatda chechan, birpasda dunyoni ag'dar-to'ntar qilgudek faol tashkilotchi, oqni qora,

qorani oq deb isbotlamoqqa, ayniqsa, mohir edi. U tagi oqsuyak xo'jalar avlodidan bo'lib, markscha-lenincha ta'limotga azbaroyi mehri zo'rligidan nasl-nasabini inkor etgan, o'zi xushbichim, oqbadan, lekin yupqa lablari har qanaqa odamni chimdisha shaygina ayol ediki, mansab pillapoyalaridan yengil-yengil hatlab o'tishiga va, nihoyat, muhim bir jabhaning quloqboshiga mahkam o'rnashuviga ana shu sifatleri ham tirgovuch bo'lgan edi" [1].

Ko'rinib turibdiki, asardagi Mafkuraxonim kabi obrazlar sho'ro mafkurasidan shakllantirilgan soxta qadriyatlar va fikriy qullikning timsoli sifatida gavdalanadi. Bu tipajlar shaxsiy fikr va ma'naviy mustaqillikdan mahrum, mafkurani mutlaq haqiqat deb biluvchi tuzum odamlarining qiyofasini namoyon etadi. Shu tarzda yozuvchi ijodkor va mafkura to'qnashuvini, haqiqat va yolg'on, vijdon va soxtalik qarama-qarshiligini dramatik va ramziy usulda ifoda etgan.

Xulosa. "Shoirning to'yi" qissasi orqali Erkin A'zam nafaqat bir ijodkor taqdiri, balki butun bir millatning ma'naviy iztiroblari, tarixiy xotirasi va ozodlikka intilishini badiiy-estetik darajada aks ettirishga muvaffaq bo'lgan. Shu jihatdan mazkur asar zamonaviy o'zbek nasrida ijodkor shaxsiyatining ma'naviy kurashi va milliy ruh dramatismini yorqin ifoda etgan muhim adabiy hodisadir.

Umuman olganda, Erkin A'zaming "Shoirning to'yi" qissasi o'zbek adabiyotida ijodkor shaxsiyati, vijdon ozodligi va millat xotirasi mavzularini yangi badiiy va falsafiy darajada yoritgan asardir. Yozuvchi asar orqali totalitar tuzumning inson ruhiyatiga, ayniqsa ijodkor ongi va qalbiga ko'rsatgan salbiy ta'sirini ochib berdi. Otashqalb shoir qiyofasi orqali u haqiqat va vijdonning mafkura qarshisidagi dramatik kurashini badiiy ifodaga aylantirdi.

ADABIYOTLAR

1. Аъзам Э. Шoirнинг тўйи / Пакананинг ошиқ кўнгли. – Т.: Маънавият, 2001. – 208 б.
2. Холмирзаев Ш. Ўттиз беш ёшда ҳам / Эркин Аъзам бадий олами (илмий мақолалар ва суҳбатлар тўплами). – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – 304 б.
3. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талкинлар, этюдлар. – Т.: "Шарқ", 2007. – 336 б.
4. Расулов А. Услуг – истёдод портрети (Эркин Аъзам ижоди). – Т.: Янги аср авлоди, 2013. – 108 б.
5. Тюпа В.И. Художественный дискурс (Введение в теорию литературы). Тверь, 2002. – 80 с.
6. Тўлаганова С. Бадий асар морфологияси. – Т.: Turon zamin ziyo, 2016. – 176 б.
7. Боров Ю. Эстетика. – 4-е изд., доп. – М.: Полиджиздат, 1988. – 496 с.
8. Болтабоев Х. Наср ва услуб: Услуг муаммосига назарий нигоҳ ва ҳозирги ўзбек насрида услубий изланишлар. – Т.: Фан, 1992. – 104 б.
9. Қўшжонов М. Қалб ва қиёфа. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1978. – 224 б.
10. Қуронон Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – 400 б.
11. Қуронон Д. Талкин имконлари. –Т.: Turon zamin ziyo, 2015. – 88 б.